



O'QUVCHI-YOSHLARDA MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Boltayeva Ruqiya Sherzod qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

22-01-guruh 2-bosqich talabasi Termiz davlat
pedagogika instituti

Muminova Umida Qarshiyevna

Ilmiy rahbar:

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-September 2023 yil

Ma'qullandi: 08-September 2023 yil

Nashr qilindi: 14-September 2023 yil

KEY WORDS

DTS, o'quvchi-yoshlar, boshlang'ich ta'lim, mantiqiy fikrlash, kreativlik, PISA, PIRLS, TIMSS, EGRA, EGMA, ta'lim tizimi, dunyoqarash, salohiyat, intellektual, darslik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada yurt kelajagi bo'lgan o'quvchi - yoshlarda mantiqiy fikrlash va mantiqiy dunyoqarashini shakllantirishda Xalqaro baholash dasturlari va DTSning o'rni haqida so'z yuritiladi.

Yangi texnologiya asrida yashayotgan ekanmiz, dunyoga ham yangicha qaramog'imiz lozim. Yurtimizning kelajagi bo'lgan o'quvchi - yoshlarimizni mantiqiy fikrlash va kreativ dunyoqarashga ega bo'lgan holda tarbiyalash asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

Ayni paytda o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish birinchi qadamdan, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlangan. Shu o'rinda aytish joizki, ko'plab mamlakatlar miqyosida o'tkazilayotgan Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS, EGRA, EGMA) ham aynan o'quvchi-yoshlarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishdek ulkan vazifani o'z oldiga maqsad qilgan. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi farmonida 2030-yilga borib 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholovchi, ya'ni PISA baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishga erishish bo'yicha qator vazifalar belgilangan.

Xalqaro baholash dasturlaridagi savollarning har biriga, qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar, mantiqiy yondashgan holda yechim topiladi. PIRLS, EGRA hamda EGMA dasturlari, asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini qamrab oladi. PIRLS dasturida matnni o'qish va tushunish darajasini baholasa, EGRA va EGMA dasturlarida o'qish hamda matematika bo'yicha baholanadi. PISA hamda TIMSS ham bir-biriga o'xshaydi. Ammo o'rtasida farq bor. Eng asosiy farqi ularning turli xil yosh va sinflar toifasida o'tkazilishi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qatori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat

inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Bu, albatta, Vatanimiz taraqqiyoti va buyuk kelajagi uchun tashlangan yana bir qadam sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan Davlat Ta'lim Standarti qabul qilingan. Yangi darslik ham, asosan, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga bo'lgan salohiyatini oshirishga qaratilgan. Boshlang'ich sinf darsliklaridan ham kombinatorik masalalar atroflicha o'rin egallagan. Odatda, kombinatorika yuqori sinf darsliklarida alohida mavzu sifatida o'tilar edi, ayni vaqtda bunday masalalar boshlang'ich sinf darsliklarining har bir mavzusida, deyarli, berilgan. Yangi Davlat ta'lim standartida PISA, PIRLS, TIMSS, EGRA hamda EGMA dasturlarining bazasi ham mavjud. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida, asosan, matn ko'p joy olgan. Buning sababi, o'quvchilar boshlang'ich davrdanoq matn o'qib erkin fikrlash qobiliyatini hamda masalaga mantiqiy tomonlama yondashish mahoratini shakllantirishdan iborat. Bu darsliklar faqat mantiqiy fikrlabgina qolmay, balki o'quvchida nutqiy hamda lingvistik kompetensiyalarni shakllantiradi.

Mantiq-kishi bilimlarini ijtimoiy hayotga tatbiq etadi, - desak, mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, kishi mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lsa, hayot faoliyati davomida yuzaga kelgan muammolarni osongina yenga oladi. DTS, Xalqaro baholash dasturlari ta'lim sifatini, o'quvchi-yoshlarning mantiqiy salohiyatini oshirish uchun xizmat qilmoqda. Mantiqiy fikrlashga ega bo'lgan har qanday shaxs intellektual raqobatga tayyor kadr hisoblanadi. Hozirgi kunda davr talabi bo'lgan ITsohasi uchun mantiq ilmi poydevor vazifasini o'taydi. Mantiqsiz porloq kelajakni qurish imkonsizdir. E'tibor bering: rivojlangan mamlakatlar, eng avvalo, ta'lim jarayonini mantiq va kreativlik asosida tashkil etgan. O'quvchi-yoshlarning mantiqiy fikrlash quvvatini oshirishda DTS, Xalqaro baholash dasturlarining o'rni beqiyos. Ishlab chiqilgan bunday dasturlar ham faqat yoshlar intellektini o'stirish, kreativlik qobiliyatini namoyon qilishdan tashkil topadi.

Shunday shart-sharoitlar, imkoniyatlar eshigi ochiq bo'lgan bir ajib zamonda yashar ekanmiz, bu eshik kalitlarini hech qo'ldan boy bermasligimiz lozim. Zero, kelajak yoshlar qo'lidadir. Biz berilgan ishonchni oqlashimiz uchun faqat chuqur bilim, kuchli iroda, to'xtamas harakatga ega bo'lishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti ta'kidlanganidek. «Yoshlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo'lishlari shart» dir. Biz ajdodlarimizga munosib bo'lishimiz uchun ular qoldirgan boy xazinani asrashimiz, yanada boyitishimiz, yurt ravnaqi uchun tinimsiz harakatda bo'lishimiz, yoshlarga o'rnak bo'ladigan shaxs bo'lib yetishishimiz darkor!

Adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich ta'limdan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Respublika ta'lim markazi-T:2017.
2. Gulnoza Ochdieva, & Muminova Umida Karshievna. (2023). METHODS AND MEANS OF FORMING A POSITIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THE ENVIRONMENT IN THE EXTRACURRICULAR PROCESS. European Scholar Journal, 4(3), 106-108. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/3302>
3. Hasanova Gulbahor Davlatmamatovna, & Muminova Umida Karshievna. (2023). STUDYING THE SOCIAL, EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF SCIENTIFIC AND POPULAR ARTICLES IN PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. Open Access Repository, 4(03), 46-52. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QR64M>

4. 2023-03-13 Issue Vol. 1 No. 2 (2023): "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE"

5. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/Z428Y>

Umida Muminova Qarshiyevna Qarshiyevna@gmail.co (Primary Contact)

Termiz State Pedagogical Institute, Theory of Primary Education, teacher of the department

6. Qarshiyevna, M. U. (2023). Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(1), 389-394.

7. Muminova, U. (2023). "MAHBUB UL-QULUB" ASARIDAGI MA'NO KENGAYISHIGA UCHRAGAN SO'ZLAR XUSUSIDA. Interpretation and researches, 2(1)..

